

MILLIY TELERADIOKANALLARDA CHET TILLARDA UZATILADIGAN AXBOROT TAHLILI

Jo‘raqulov Navro‘zbek O‘zMU magistri

Annotasiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda telerradiokanallarda chet tillarida uzatiladigan ko‘rsatuvlarning axborot tahlili haqida so‘z boradi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusiga doir ilmiy va rasmiy adabiyotlar umumlashtirilib mavjud muammo yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalart keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Chet tilidagi ko‘rsatuvlar, audiovizual materiallar, mavzu va mahurat masalalari.*

Abstract. *This article talks about the information analysis of programs broadcast in foreign languages on television and radio channels today. Also, the scientific and official literature on the topic of this article is summarized and relevant suggestions and recommendations are given regarding the existing problem.*

Keywords: *Foreign language programs, audio-visual materials, subject and subject matters.*

Абстрактный. *В данной статье говорится об информационном анализе программ, транслируемых на иностранных языках на телеканалах и радио на сегодняшний день. Также обобщается научная и официальная литература по теме данной статьи и даются соответствующие предложения и рекомендации относительно существующей проблемы.*

Ключевые слова: *программы по иностранному языку, аудиовизуальные материалы, предмет и тематика.*

KIRISH

O‘zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2019-yil yanvar holatiga ko‘ra, jami 1167 ta OAV ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 107 tasini tele va radio kanallar tashkil etadi. Ommaviy axborot vositalari davlat reestrda 70 ta televideniedan 16 tasi, 37 ta radiodan 7 tasi respublika bo‘yicha tarqalish ko‘rsatilgan. Mazkur ma‘lumotnomada, aynan electron OAVlarning tillar bo‘yicha tahlili keltirilmagan. Magistrlik dissertatsiyasi doirasida tele va radiokanallardagi ko‘rsatuv va eshitirishlarni kuzatib, yakunda o‘zbek, qaraqalpoq, rus, va ingliz tillarigina yetakchilik qilishiga amin bo‘ldik. Afsuski, boshqa birortilda muntazamlik kasb etgan telerradio dasturlar efirga berilmaydi. Vaholanki,

xorijiy tillardagi audiovizual materiallar ikki mamlakatning yaqin qo‘shnichilik, birodarlik, barcha sohadagi manfaatlarinimushtarakligiga xizmat qiladi[1].

Xayriyatki, O‘zbekistonda “Qozog‘iston yili” ning ochilishi munosabati bilan O‘zbekiston ilk bor 2019-yil 14-aprel kuni davlat rasmiy axborot manbai va mamlakatdagi yetakchi axborot agentligi hisoblangan O‘zbekiston Milliy Axborot agentligining veb-saytida qozoq tili versiyasi ishga tushirildi¹. Ammo hanuzgacha tele yoki radiokanallarida bu tilde biror ko‘rsatuv yoki eshittirish muntazam efigra berilmayapti. Vaholanki, bu kabi qardosh tillar ikki mamlakat o‘rtasidagi muhim ijtimoiy siyosiy voqaealarni to‘laligicha yoritish, azaliy yaqinlikni targ‘ib qilish, do‘stlik, hamjihatlik rishtalarini yanada mustahkamlashda benihoya dolzarb ahamiyat kasb etadi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida 1998-yilning 1- sentyabrdan efigra uzatila boshlangan “Yoshlar” telekanali mamlakatimiz axborot makonida aksiyadorlik jamiyati shaklidagi eng birinchi va yagona elektron ommaviy axborot vositasi sanaladi. Dastlab efir hajmi 16 soat bo‘lgan telekanal davlatimizning Yoshlarga oid siyosatini keng targ‘ib etish, mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlarni keng yoritish, shuningdek huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini shakillantirishga qaratilgan islohotlar haqida axborot berish borasida muhim o‘rinlardan birini egalladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Mustaqil tele-radiokanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2005-yil 8-noyabrdagi PF-3678-son farmoniga asosan “Yoshlar” telekanali va “Yoshlar” radiokanali negizida “Yoshlar teleradiokanali” yopiq aksiyadorlik jamiyati tshkil qilindi².

Yutuqlari xususida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, “Yoshlar” teleradiokanali o‘zini yuz foiz moliyaviy ta‘minlashga o‘tgan electron ommaviy axborot vositasi bo‘lib, korporativ boshqaruv sohasidagi jahonning eng ilg‘or tajribalarini va bozor ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli va samarali o‘zlashtirib kelmoqda. “Yoshlar” teleradiokanalining asosiy – lokomotiv ijodiy tashkiloti bo‘lgan “Yoshlar” telekanali O‘zbekistondagi eng nufuzli va reytingi baland ommaviy axborot vositalaridan biri sanaladi. “Yoshlar” telekanalining ijodiy statistikasi, o‘ziga xos uslubi va yondashuvlari mamlakatimizdagi boshqa electron ommaviy axborot vositalari uchun

¹ www.uza.uz

² www.mtrk.uz

kata maktab va tajriba manbasi bo‘lib xizmat qilsa-da, xorijiy tillarda uzatiladigan ixtisoslashgan ko‘rsatuvlari deyarli yo‘q.

Vaholanki, “Yoshlar” telekanali tarkibida uchta bosh muharririyat, ikkita studiya, bosh rejissyor xizmati, bosh efirga uzatuvchi rejissyor xizmati va muxbirlar punktlari tarmog‘i faoliyat ko‘rsatadi.

Boz ustiga, davlatimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan kata shart-sharoitlar va ulkan imkoniyatlar, ularning iste‘dodlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini aholiga yetkazish bilan birga, mamlakatimizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan hamda o‘zining bilimga chanqoqligi, iqtidori, ichki ma‘naviy dunyosi bilan barchaning havasini keltirayotgan, bunyodkorlik yaratuvchanlik ishtiyoqi bilan yongan yigit-qizlarimiz haqida, ularning ishlab-chiqarish, xalq xo‘jaligi, sport va san‘at, fan va adabiyot, milliy hunarmandchilik va boshqa ko‘plab sohalarda erishayotgan ulkan yutuqlari haqida chet tilida ko‘plab lavhalar, reportajlar va teleocherklar tayyorlash mumkin.

NATIJALAR

Televideniening asosiy xususiyatlari, ya‘ni aholining xolis va haqqoniy axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, uning bilim doirasini kengaytirish va hordig‘ini chiqarish kabi umume‘tirof etilgan vazifalarni, shuningdek telemahsulotlar orqali inson psixologiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish, teletomoshobin dunyoqarashini shakllantirish hamda uning ongini ezgulik g‘oyalari bilan to‘ldirish kabi maqsadlarni samarali amalga oshirishda kinodasturlar va tezkor dublyaj studiyasi aholimiz qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, xorijiy davlatlarning teleseerallari, badiiy va multiplikatsion filmlari hamda ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irgan holda namoyish etish bilan shug‘ullanadi. Mazkur studiya tomonidan dublyaj qilingan xorijiy telemahsulotlar ko‘plab teletomoshobinlarimizning munosib e‘tirofi va olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

“Yoshlar” telekanali orqali aholimiz yuksak badiiy- g‘oyaviy saviyaga ega bo‘lgan, yuqori professional darajali va qiziqarli kinofilmlar, ezgulik va insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etuvchi teleseriallar, shuningdek jahon kinoklassikasining nodir namunalari bo‘lgan badiiy teleasarlarni o‘zbek tilida tomosha qilish imkoniga ega bo‘lmoqda.

“Yoshlar” telekanalining kinodasturlar va tezkor dublyaj studiyasi telemahsulotlarini o‘zbek tilida ovozlashtirish jarayonida munosib aktyorlarni tanlay bilish, ovozga sayqal berish, tarjima sifati hamda xorijiy teleasarni o‘zbekona ruhiyatga

yaqinlashtirish kabi yo‘nalishlarda kata yutuqlarga erishgan va shu orqali teletomoshobinlar e‘tiborini qozongan.

Shuningdek kinodaturlar va tezkor dublyaj studiyasi tomonidan milliy badiiy teleasarlarni yaratish tajribasi ham yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan “Yoshlar” telekanali ijodkorlari yaratgan “Bir qadam”, “Jiblajibon”, “Izzat”, “Baloyi nafs”, “Kaminaning oilasi”, “Oqqush”, “Oila sha‘ni”, “Xiyonat”, “O‘zingga ishon”, nomli teleseriallar hamda “San‘at sehri”, “G‘urur”, “Navro‘z ertagi”, “Radio”, “Saboq”, “Tilla soat”, “Bedor tunlar”, “Taqdir”, “Baxtli odamlar” kabi badiiy filmlar keng jamoatchilik tomonidan munosib e‘tirof etilgan.

Bosh rejissyor xizmatining asosiy faoliyati “Yoshlar” telekanalida yaratilayotgan har bir telemahsulotning televizion rejissura qoidalariga to‘liq amal qilingan holda tayyorlanishini ta‘minlashga qaratilgan. Mazkur ijodiy bo‘linma rejissyorlar, teleoperatorlar, ovoz rejissyorlari, sahna rassomlari, videoinjinerlar kabi mutaxassislardan iboratdir. Ushbu mutaxassis kadrlarning bilim va malakasini oshirish, televizion rejissuraning eng ilg‘or yutuqlarini hayotga tadbiiq etish, yirik ommaviy tadbirlarni yuritishda maxsus ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, eng zamonaviy va yuqori texnologiyalarga ixtisoslangan televizion texnika imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yangi teleloyihalarni yo‘lga qo‘yishda faol ishtirok etish bosh rejissyor xizmatining asosiy vazifalaridir.

Bosh efirga uzatuvchi rejissyor xizmatining asosiy vazifasi “Yoshlar” telekanalida tayyorlangan telemahsulotlarni tasdiqlangan reja asosida efirga sifatli va o‘z vaqtida uzatishdan iboratdir. Televizion efirning uzluksizligini ta‘minlash va teleko‘rsatuvlarning texnik sifatini nazorat qilish ham bosh efirga uzatuvchi rejissyor xizmati faoliyatining asosini tashkil etadi.

Qaraqolpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi muxbirlar punktlari tarmog‘i mamlakatlarimizning turli hududlarida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilm-fan, sport kabi sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar, joylarda tub islohotlarning borishi, yoshlarga oid davlat siyosati amalga ishirishga qaratilgan chora-tadbirlar, milliy an‘analar va ma‘naviy merosini asrab-avaylash, yoshlarni Vatanga muhabbat va umuminsoniy qadiyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan, shuningdek, qishloqlardagi yigit-qizlarning kundalik hayoti va turli sohalarda erishilayotgan yutuqlarini namoyon etuvchi teleko‘rsatuvlar tayyorlaydi.

Yurtimiz hududlarida kechayotgan islohotlarda va demokratik yangilanishlar jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan, mamlakatimiz mustaqilligini yanada

mustahkamlashga hissa qo‘shayotgan turli kasb egalari, yosh tadbirkorlar va fermerlar faoliyati, Qaraqolpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlar hayotidagi muhim voqealar tafsilotlari haqida tezkor axborotlar, lavhalar va reportajlar tayyorlash muxbirlar punktlari tarmog‘i faoliyatining asosini tashkil etadi[3].

Hozircha “O‘zbekiston” telekanalining “Axborot” bosh muharririyatida tayyorlanadigan rus va ingliz tillardagi information teledasturlar mamlakatimiz axborot maydonidagi yagona namunali information ko‘rsatuv bo‘lib turibti[4].

“O‘zbekiston teleradiokanali” davlat unitary korxonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-noyabrda “Mustaqil teleradiokanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va 2005-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida faoliyat ko‘rsatgan.

XULOSA

Mamlakatimizning birinchi prezidenti farmoni va qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan “O‘zbekiston” telekanali negizida “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat unitary korxonasi tashkil etilib, 2005-yildan boshlab yangi vazifa va ma‘no-mazmunga asoslangan kanalga aylandi. To shungacha yaratilgan adabiy drammatik asarlarning barchasi shu kanalning mahsuloti sifatida e‘tirof etiladi. Keying 10 yil ichida “O‘zbekiston” telekanali o‘zining rang-barang, sermazmun, serjilo ko‘rsatuvlari bilan boyidi. Xususan, yirik shou dasturlar, “Tutash taqdir”, “Opa singillar”, “Imtihon”, kabi teleseriallar, “Zakovat”, “Munosabat”, “O‘zingni angla”, “Biz uchun muhim”, “Uchburchak”, “Nigoh”, “Dolzarb mavzu” kabi tayyorlanayotgan dasturlar bugun har bir xonadonimizning sevimli ko‘rsatuviga aylanib bo‘ldi. “O‘zbekiston” telekanali orqali Navro‘z va Mustaqillik umumxalq bayramlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatsih bo‘yicha shu kanalning juda katta ijodiy jamoasi mehnat qilib keladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakli, bu kanalda rejissura, mualliflik, muharrirlik, operatorlik maktablari yaratilganki, bu maktablardagi tajriba va malaka ularning mahorat maktabi ekanini isbotlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz hayotiga oid eng muhim ijtimoiy-siyosiy tadbirlar, eng katta bayramlar, xalqimiz hayoti va tarixiga oid tadbirlar, xalqaro konferensiyalar, olamshumul hodisalarni yoritishda, teletomoshobinlarga yetkazishda “O‘zbekiston” telekanali ijodiy jamoasi muhim o‘inga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. www.mtrk.uz
2. www.uza.uz
3. Do‘stqoraev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. Darslik, 1 – qism. – T.: O‘zbekiston. 2012. Melnik P. 2014.
4. Abduazizova N. Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi ta’rixi. – T.: Akademiya, 2007.